

05.12.2022 даги "AVANGARD IDEAL PLYUS" МЧЖ ва Карши туман Ободонлаштириш бошкармаси ўртасида  
 903 070 000 сўм умумий суммага тузилган 94523/2022 - сонли шартномага

**ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ**

Шахсий ғазна ҳисобварақ \_\_\_\_\_

401722860102247045204110027

2022 й. ойлар номн.	Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди)			сўмда
	4233100			Жами
Январь				
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь	903 070 000,00			903 070 000,00
<b>Жами йил бўйича</b>	<b>903 070 000,00</b>			<b>903 070 000,00</b>

Жами 903 070 000 (Тўққиз юз уч миллион етмиш минг) сўм

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 270 921 000,00 сўм ёки шартноманинг умумий суммасидан 30% олдиндан  
 2022 йил декабрь ойида тўланиши лозим.

Буюртмачи раҳбари

М.Ў.



Даминов Диёр Хайдарович  
 Ф.И.Ш.

Буюртмачи бош бухгалтери

Зиятова Нигора Абдивоҳид кизи  
 Ф.И.Ш.

Ғазначилик бўлинмасининг  
 ходими қабул қилди \_\_\_\_\_

(имзо)

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ й.

Буюртмачи ходими  
 қабул қилди \_\_\_\_\_

(имзо)

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ й.

O'zbekiston Respublikasi Tovar xom-ashyo birjasi maxsus axborot partalida eng yaxshi takliflarni tanlash yuzasidan joylashtirilgan 21.11.2022 yilgi №22110012194523 lot raqamli tanlov o'tqazish to'g'risidagi e'lon natijasi bo'yicha

## PUDRAT SHARTNOMASI (JORIY TA'MIRLASH ISHLARI BO'YICHA)

94523/2022 son

2022 yil "25" dekabr

Toshkent viloyati "AVANGARD IDEAL PLYUS" MCHJ nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi raxbar **M. Eshmurodov** bir tomondan va keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan **Qarshi tumani Obodonlashtirish boshqarmasi** nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi boshlig'i **D.Daminov** ikkinchi tomondan, tegishli nuqsonlar dalolatnomasi asosida Qarshi tumani "OBOD YO'L QURILISH TA'MIR" MCHJ tomonidan tayyorlangan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi "Shaxarsozlik xujjatlari ekspertizasi" DUK tomonidan 17.11.2022 yilgi №74607-sonli jamlanma ekspertiza xulosasi bilan tasdiqlangan) loyixa smeta xujjatlariga asosan, Qarshi tumani "Paxtakor MFY xududi Uchdarak ko'chasi" ichki xo'jalik yo'llarini joriy ta'mirlash ishlari (smeta xujjatlarida nazarda tutilgan ishlar xajmi miqdorida)ga doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

### 1. Ta'riflar

1. Mazkur shartnomada tariflar kullaniladi:

«**ijro hujjatlari**»: — naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun ma'sul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarini bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiya va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risida dalolatnomalar, ayrim ma'suliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risida dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risida dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalari nazarda tutilgan boshqa hujjatlar:

«**qurilish maydoni**»: Mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasini ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilangan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi.

«**vaqtinchalik ishlar**»: Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlar bajarish uchun zarur zarur bo'lgan har tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar.

«**berkitilgan ishlar**»: — sifati va yakunligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar:

**shartnomani narxini bo'lib chiqish**: ishlarning har bir bosqichi yoki turlari qiymatining aniq belgilangan holda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

### 2. Shartnoma mavzusi

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq: Qarshi tumani "Paxtakor MFY xududi Uchdarak ko'chasi" ichki xo'jalik yo'llarini joriy ta'mirlash ishlari majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga ichki yo'llar joriy ta'mirlash ishlarni bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

### 3. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati.

3. Mazkur shartnoma bo'yicha pudratchi tomonidan bajariladigan elektron tanlov natijasida aniqlangan va tanlov komissiyasining elektron shakllangan qarori (2022 yil 28

**noyabrdagi elektron bayonnoma)** bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'img'lar va ajratmalarini o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda **903 070 000.00 (To'qqiz yuz uch million yetmish ming) so'mni tashkil etadi. Shundan QQS: 117 791 739 (Bir yuz o'n yetti million yetti yuz to'qson bir ming yetti yuz o'ttiz to'qqiz) so'm.** Joriy ta'mirlash ishlari qiymati va ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holati sabab bo'lganda; ishlar hajmi buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda; ob'ektning qurilishi bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda.

4. Joriy ta'mirlash ishlari muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

#### **4. Pudratchining majburiyatlari**

6. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning 2-bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

— barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda inshoot narxidagi ishlarni eng kamida 50% ni o'zining kuchlari bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

qurilish maydoniga zarur qurilish materiallar, buyumlar, konstruksiyalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikalarini yetkazib berish, ularni qabul qilish tushirish omborga joylash va saqlash;

— yo'l qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

— buyurtmachini Pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mazmuni, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;— yo'l qurilish tavakkalchiligini sug'urta qilish.

Mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomaga imzo chekilgandan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari, asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlari, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish; qurilish maydonini qo'riqlanishini ta'minlash; qurilish jarayonida jalb qilingan ishchi xodimlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirib, ijtimoiy himoyasi va texnik xafsizligini ta'minlash. Mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarishni o'z zimmasiga oladi.

7. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan (qurilish ishlarining 50 % dan ko'p bo'lmagan) zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

#### **5. Buyurtmachining majburiyatlari**

8. Mazkur shartnomani bajarish uchun buyurtmachi:

— mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga ilovaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

— ishlar bajarilishi ustidan doimiy qurilishda texnik nazorat va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

— moliyalashtirish jadvaliga binoan pudratchiga 3 ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

— mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab, bir oy davomida pudratchiga pudrat ishlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

— mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

## **6. Ishlarni bajarish muddati**

9. Shartnoma milliy valyuta (so'mda) o'zaro hisob-kitob qilinganda tomonlar uchun imzolangan paytdan boshlab: keyinchalik EAV ga konvertatsiya qilgan holda milliy valyutada (so'mda) o'zaro hisob-kitob qilinganda shartnoma qonun hujjatlarga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi:

10. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq, birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

11. Tanlov natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran **30 (o'ttiz) kuni** tashkil etadi.

12. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar, ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

## **7. To'lovlar va hisob-kitoblar**

13. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy qiymatining 30% miqdorida, avans o'tkazadi, bu **270 921 000.00 (Ikki yuz yetmish million to'qqiz yuz yigirma bir ming) so'mni tashkil etadi.**

14. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallari asos hisoblanadi

15. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar sifati tekshirilgandan keyin, berilgan avansni hisobga olgan holda, ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallariga muvofiq ob'ektning umumiy shartnomaviy joriy qiymatning 100% gacha doirasida amalga oshiriladi.

16. Ob'ektning shartnomaviy joriy qiymatning qolgan qismi Buyurtmachi va Pudratchi o'rtasidagi uzil-kesil hisob-kitob qurilish tugallangandan keyin va ob'ekt qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin yoki mazkur shartnomada belgilangan kafolat muddati (bir yil) tamom bo'lgandan keyin ishlar qiymatining foizgacha miqdorida, amalga oshiriladi:

17. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ektning Buyurtmachiga topshirilgunga qadar, ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

18. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab 60 kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bundan Buyurtmachi pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

## **8. Ishlarni bajarish**

19. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini — Texnik auditorini tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob uskunalar shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

20. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davr mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

21. Pudratchi Texnik auditor ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

22. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI bo'limda ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

23. Pudratchi ob'ektda ishlarni olib borish tartibini qurilishda Davlat nazorat inspeksiyasi bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

24. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

25. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

26. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab 3 kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni bog'lash (privyazka) qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

27. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari o'lchamlari bo'lishi va ularning muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi. Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

28. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarning joylashi sxemalarini va jadvallarni saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnomani bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

29. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

30. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalari va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va kommunikatsiya tizimlari sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifati tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

31. Alohida berkitilgan konstruksiyalar va berkitilgan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilishni boshlashdan 2 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va qurilishda Davlat nazorati inspeksiyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

32. Qabul qilinadigan konstruksiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan ma'sul konstruksiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning qurilishda Davlat nazorati inspeksiyasi bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruvini dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

33. Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

34. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlarga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda

chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isoblatlasa javobgar hisoblanmaydi.

35. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelshilgan muddatda qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnoma 35 bandining ikkinchi xat boshida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno. Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

36. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarini supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydonda qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

37. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallaguncha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashni uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini o'z zimmasiga oladi.

## **9. Ishlarini qo'riqlash**

38. Pudratchi ishlar boshlanishidan qurilish tugallaguncha va qurilish tugallangan ob'ekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududidagi materiallar, asbob-uskunalar qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

39. Tiklangan bino va inshootlar shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulk ob'ekt qabul qilib olingandan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

## **10. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari**

40. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtda mutanosib ravishda uzaytiriladi.

41. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oyda ko'p vaqtda cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

42. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

## **11. Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish**

43. Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha

majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilishi tugallangan ob'ektni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

44. Ob'ektni foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchi yozma bildirishnomasini Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 10 kun mobaynida qabul qilib olinadi.

45. Pudratchi qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish boshlanishidan besh kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan belgilagan tarkibdagi ikki nusxa ijro hujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu hujjatlar to'plamini amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

46. Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob'ekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

## 12. Kafolatlar

47. Pudratchi: — barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarishni;

— loyiha hujjatlari hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlarga muvofiq bajarilgan barcha ishlar sifatini;

— o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va kommunikatsiya tizimlari sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatlariga, davlat standartlariga hamda texnik shartlariga muvofiqligini;

— ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilinishni; ob'ektdan foydalanganda muhandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

48. Ob'ekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolat muddati tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektning qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida bir oy etib belgilanadi.

49. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, uni bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirishi imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi. Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomalarida qayd etiladi. Agar Pudratchi bajarilgan ishlaridagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII-bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

50. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh torgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish qurilishda Davlat nazorati inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha xo'jalik sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

## 13. Shartnomani bekor qilish

51. Buyurtmachi: — shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

— ishlarni tugallashning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga kechiktirilgan holda;

— pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

— pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalari nazarda tutilgan ishlarining sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

— qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

52. Pudratchi:— ishlarining bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

— buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

— qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

53. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish ob'ekti bir oy muddatda Buyurtmachiga topshiriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

54. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

55. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

56. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

#### **14. SHARTNOMA MAJBURIYATLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK**

57. Taraflardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, bu taraf:

boshqa tarafga yetkazilgan zararni to'laydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, ushbu Qonunda, o'zga qonunchilik hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha tarzda javobgar bo'ladi.

58. Ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

59. Bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, ishlarni, xizmatlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, yetkazib beruvchidan ishlar va xizmatlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar ishlar va xizmatlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Ishlar, xizmatlar uchun jarima yetkazib beruvchidan (pudratchidan) akseptsiz tartibda undirib olinadi.

60. Jarimani undirish to'g'risidagi to'lov talabnomasi bank muassasasiga tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) sifati, assortimenti va navi lozim darajada emasligi to'g'risidagi dalolatnoma tuzilgandan keyin o'n kun ichida taqdim etiladi. Jarimani undirish to'g'risidagi to'lov talabnomasi belgilangan o'n kunlik muddatni buzgan holda taqdim etilgan hollarda, jarimani undirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

61. To'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun sotib



oluvchi (buyurtmachi) mahsulot yetkazib beruvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

62. Ishlar, xizmatlar) haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

Hisobvaraqdan mablag'larni asossiz ravishda akseptsiz hisobdan chiqarganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga asossiz ravishda akseptsiz hisobidan chiqarilgan summaning 10 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Neustoyka (jarima, penya) to'laganligidan qat'i nazar, shartnoma majburiyatlarini buzgan taraf ikkinchi tarafga ana shu zarar oqibatida o'zi yetkazgan zarar qismini ham qoplaydi.

Yetkazilgan zararlarga shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi, mol-mulk yo'qolishi yoki shikastlanishi munosabati bilan taraf qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlar, shuningdek agar ikkinchi taraf shartnoma majburiyatlarini bajarganida taraf olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlar kiradi.

Muddatini o'tkazib yuborish yoki shartnoma majburiyatlarini o'zgacha tarzda lozim darajada bajarmaslik hollari uchun belgilangan neustoykani (jarimani, penyani) to'lash hamda shartnoma majburiyatlarini lozim darajada bajarmaslik oqibatida yetkazilgan zararining o'rnini qoplash, taraflarni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod etmaydi.

#### **15. Nizolarni hal etish tartibi**

64. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo buladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

#### **16. Korrupsiyaga qarshi kurashuv shartlari**

65 Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga yega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti-harakatlari/harakatsizliklarini sodir yetmaydilar.

66. Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim yetish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

67. Tomonda ushbu Shartnomaning 6.1-bandidagi talablarni buzish sodir yetilganligi yoki sodir yetilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad yetib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda yesa – amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi

#### **17. Alohida shartlar**

68. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi. Shartnoma tegishli tartibda G'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng yuridik kuchga kirib, "05" 12 2022 vildan 31 dekabr 2022 vilgacha amalda bo'ladi

69. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

70. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolangan bo'lsa haqiqiy hisoblanadi.

71. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday kelishuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgarishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

72. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlanganidan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajargan ishlari uchun haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

73. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

74. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuziladi.

## 18. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzilari

### PUDRATCHI:

**“AVANGARD IDEAL PLYUS”  
MCHJ**


Manzili: Toshkent v. Zangiota tumani  
Qizg'aldoq QFY. Nosirov kuchasi  
XR: 20208000700252024001  
Bank nomi: Mikrokredit bank  
Toshkent viloyati filiali  
MFO: 00455 STIR: 302678167  
OKED: 43220

**Ta'asischi STIR:**

tel/faks: +998999 363 33 87

Raxbar: **Eshmurodov Maruf**

(imzo)  
M.U.



### BUYURTMACHI:

**Qarshi tumani Obodonlashtirish  
boshqarmasi**

Manzili: Qarshi tumani, Beshkent  
tel/faks:  
ShXR: 401722860102247045204110027  
MFO: 00014, Toshkent shaxar  
Markaziy bank  
XKKM. STIR: **206808289**.  
OKONX: 90211.  
G'aznachilik: Uz. Res. Moliya Vazirligi  
G'aznachiligi STIRi: 201122919.  
Yagona g'azna X/R: 23402000300100001010

Raxbar: **Danurov Davlat**

(imzo)  
M.U.



**194523 лот юзасидан шакланган дастлабки  
баённоманинг муҳокамаси натижаси бўйича расмийлаштирилган электрон  
баённомаси**


Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги 276-сонли қарорига асосан дастлабки электрон баённома у расмийлаштирилган кундан бошлаб давлат харидларининг электрон тизимида муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди.

Икки иш кун ичида иштирокчилар томонидан танлаш (тендер) ўтказиш натижалари бўйича эътирозлар тушмаганлиги тўғрисида харид комиссияси аъзолари тегишли қарор қабул қилди.

Муҳокама тугаган сана:

01.12.2022 10:37

Комиссия раиси:



TURSUNOV MATYOQUB XUDOYOROVICH

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

VW0758587408

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Qarshi tumani Paxtakor MFY xududi Uchdarak ko‘chasi ichki xo‘jalik yo‘llarini joriy ta‘mirlash**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma‘lumot: QARSHI TUMAN OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI tomonidan 01.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Qarshi tuman yuridik  
markazi  
bosh yuristkonsulti:**



**F.Z.BOTIROV**  
04.12.2022

**ТАСДИКЛАЙМАН**  
Қарши туман Ободонлаштириш бошқармаси  
бошлиғи Д.Даминов  
« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2022-йил



Қарши тумани Ободонлаштириш бошқармасининг Товар хом-ашё биржаси махсус ахборот порталида 2022 йил 21 ноябрь кунда жойлаштирган №22110012194523 лот рақамли (энг яхши таклифларни танлаб олиш) эълонига мувофиқ, Қарши тумани Пахтакор МФЙ ҳудуди Учдарак кўчаси ички хўжалик йўлларини жорий таъмирлаш ишлари бўйича

### ЙИГИЛИШ БАЁНИ 419/2022

Электрон танлаш асосида шакллантирилган баённома Қарори юзасидан, танлаш иштирокчилари томонидан эътирозлар қабул қилиш (2 иш кунлик), ёки муҳокама муддати ўтиб, якуний натижаларни эълон қилиш ва танлаш ғолиби билан шартнома имзолаш юзасидан

**Қарши туман**

**БАЁН**

**30 ноябр 2022 йил**

**Комиссия раиси:**

*Ободонлаштириш объектларини сақлаш бўлим бошлиғи*

*М.Турсунов*

*Комиссия аъзолари*

*Ободонлаштириш бош Тех назоратчиси*  
*Ободонлаштириш бошқармаси инфратузилма*

*И.Исломов*

*Объектларидан фойдаланиш бўлими бошлиғи*

*И.Хасанов*

*Ободонлаштириш бошқармаси назоратчиси*

*Қ.Рахматов*

*Ободонлаштириш бошқармаси назоратчиси*

*Ш.Тошев*

*Ободонлаштириш бошқармаси назоратчиси*

*Б.Мухторов*

### Кун тартибида қуриладиган масала:

Қарши тумани Ободонлаштириш бошқармасининг Товар хом-ашё биржаси махсус ахборот порталида 2022 йил 21 ноябрь кунда жойлаштирган №22110012194523 лот рақамли (энг яхши таклифларни танлаб олиш) эълонига мувофиқ, Қарши тумани Пахтакор МФЙ ҳудуди Учдарак кўчаси ички хўжалик йўлларини жорий таъмири ишлари бўйича электрон ўтказилган танлаш натижалари юзасидан танлаш иштирокчилари эътирозлари муҳокамаси.

Якуний ҳулоса асосида танлаш ғолибини маълум қилиш ва ушбу лойиҳа ташкилоти билан тегишли тартибда шартнома тузиш

Кун тартибидаги биринчи масала юзасидан Комиссия раиси М.Турсунов сўзга чиқиб Товар хом ашё биржаси махсус ахборот порталида Қарши тумани Пахтакор МФЙ ҳудуди Учдарак кўчаси ички хўжалик йўлларини жорий таъмири ишлари бўйича жойлаштирилган (энг яхши таклифларни танлаб олиш) эълон муддати 2022-йилнинг 28- ноябрь кунда якунланганини айтиб ўтди. Шунингдек 2022-йилнинг 30-ноябрь кунда харид комиссияси қотиби томонидан талабгорлар таклифлари (электрон харид тизими орқали) тўлиқ баҳоланганлигини ва комиссия таркиби овоз бериш натижасига кўра якуний баллар асосида электрон танлаш баённомаси шакллантирилганлигини яна бир бор маълум қилди.

У ўз сўзини давом эттириб мазкур танлаш жараёнида жами 4 нафар иштирокчи ўз хизматлари таклифи билан қатнашиб овоз бериш натижасига кўра 88 балл билан “AVANGARD IDEAL PLYUS” МСНҲ ғолиб бўлганлигини маълум қилди. Ушбу эълон талабномаси бўйича Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 20.05.2022 йилги №276 сонли қарори асосида ишлаб чиқилган. “Давлат харидларини амалга ошириш билан боғлиқ тартиб тамоилларини ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисида”ги низомнинг 98- бандига мувофиқ 2 иш куни яъни 2022- йилнинг 30-ноябрь (29-30-ноябр кунлари) санасигача бўлган муддатларда муҳокама қилиш учун ахборот порталида жойлаштирилганини таъкидлаб ўтди. Ушбу муҳокама муддати даврида “etender.uzex.uz”

махсус ахборот портали “мухокама” махсус дарчаси орқали ҳеч қандай эътирозлар келиб тушмаганлигини айтиб ўтди.

Яқунда комиссия аъзолари танлаш натижасига кўра ғолиб ҳаққоний аниқланганлиги ва танлаш ғолиби деб топилган “AVANGARD IDEAL PLYUS” MCHJ томонидан таклиф этилган танлаш хўжжатлари бошқа иштирокчиларникидан айрим хужжатларида устунлиги эълонда сўралган талабларга мувофиқлигини инobatга олиб ушбу ташкилот билан шартнома имзолани таклиф қилдилар.

Хайъат аъзоларининг таклифлари фикр мулохазалари ва тавсияларидан келиб чиққан ҳолда танлов хайъати томонидан

### ҚАРОР ҚАБУЛ ҚИЛИНДИ

1. Давлат харидлари тўғрисидаги қонун хужжатлари талабларига мувофиқ электрон баённома расмийлаштирилгандан сўнг 2 иш куни муддатида ҳеч қандай эътирозлар келиб тушмаганлигини инobatга олиб, “AVANGARD IDEAL PLYUS” MCHJ 903 070 000 (Тўққиз юз уч миллион етмиш минг) сўмлик лойиха ишлари таклиф билан танлаш ғолиби деб тан олинсин. Кўзда тутилган маблағлар ҳисбодан мазкур ташкилот билан тегишли тартибда лойиха смета хужжатлари тайёрлаш хизматлари бўйича шартнома имзолансин.
2. “AVANGARD IDEAL PLYUS” MCHJ томонидан бажариладиган ишларини сифатли ва ўз муддатида бажарилишини назорат қилиш шунингдек тугалланган лойиха хужжатларини қабул қилиб олиш Ободонлаштириш бошқармаси бошлиғи Д.Даминов ва Тех назоратчиси И.Исломовлар зиммасига қолдирилсин.
3. Ушбу йиғилиш баёни қарори ижросини назорат қилиш Қарши туман Ободонлаштириш бошқармаси бошлиғи Д.Даминов зиммасига қолдирилсин.
4. Бажарилиши кўзда тутилаётган хизматлар юзасидан яъни уларнинг сифати нархи қабул далолатномалари ва бошқа хужжатларнинг ҳаққоний расмийлаштирилиши танлаш ўтказиш мезонларига амал қилинганлиги манфаатлар тўқнашувига йўл қўйилмаганлиги маблағларни мақсадли сарфланиши лойиха хужжатларининг давлат стандарти даражаси талабларга жавоб бериши ахборот порталида берилган эълон талабномасининг комиссия аъзолари ва Қарши туман Ободонлаштириш бошқармаси раҳбарияти зиммасида қолдирилсин.

#### Комиссия раиси

*Ободонлаштириш объектларини сақлаш  
бўлими бошлиғи*



М.Турсунов

#### Комиссия аъзолари

*Ободонлаштириш бошқармаси Тех назоратчиси  
Ободонлаштириш бошқармаси инфратузилма  
Объектларидан фойдаланиш бўлими бошлиғи*




И.Исломов



И.Хасанов

*Ободонлаштириш бошқармаси назоратчиси*



Қ.Рахматов

*Ободонлаштириш бошқармаси назоратчиси*



Ш.Тошев

*Ободонлаштириш бошқармаси назоратчиси*



Б.Мухторов



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida  
**GUVOHNOMA**

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

**"AVANGARD IDEAL PLYUS" Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

**"AVANGARD IDEAL PLYUS" MChJ**

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

06.08.2013

4446

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Solliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

302678167

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Qizg'aldoq, N.Nosirov ko'chasi 29-uy. .

Guvohnoma:

Toshkent viloyati, Toshkent tumani, DAVLAT XIZMATLARI tomonidan  
MARKAZI berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):



ЎЗБЕКИСТОН RESPУБЛИКАСИ АДЛИЯ  
ВАЗИРЛИГИ ҲУЗУРИДАГИ ДАВЛАТ  
ХИЗМАТЛАРИ АГЕНТЛИГИ

ЎЗБЕКИСТОН RESPУБЛИКАСИ ДАВЛАТ  
СОЛИҚ ҚЎМИТАСИ

АГЕНТСТВО ГОСУДАРСТВЕННЫХ УСЛУГ  
ПРИ МИНИСТЕРСТВЕ ЮСТИЦИИ  
УЗБЕКИСТАНА

ГОСУДАРСТВЕННЫЙ НАЛОГОВЫЙ  
КОМИТЕТ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Солиқ тўловчи ҳисобга қўйилганлиги тўғрисида  
Г У В О Ҳ Н О М А

СВИДЕТЕЛЬСТВО о постановке на учет налогоплательщика

СОЛИҚ ТЎЛОВЧИ - ЖИСМОНИЙ ШАХСГА  
НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИКУ - ФИЗИЧЕСКОМУ ЛИЦУ

Фамилияси:  
Фамилия: ESHMURODOV

Исми:  
Имя: MA'RUF

Отасини исми:  
Отчество: ELMAXMATOVICH

солиқ тўловчининг идентификация рақами берилди ва солиқ тўловчи ҳақидаги ҳисобга қўйиш  
маълумотлари Ўзбекистон Республикаси солиқ тўловчиларининг Ягона реестрига киритилди

присвоен идентификационный номер налогоплательщика с введением учетных данных о  
налогоплательщике в Единый реестр налогоплательщиков Республики Узбекистан

Солиқ тўловчининг идентификация рақами:  
Идентификационный номер налогоплательщика:

537 931 484

ЖШШИР:  
ПИНФЛ: 30104872530034

Ариза қабул қилган давлат хизмати маркази:  
Заявление принято центром государственном услуг:

Ҳисобга қўйган давлат солиқ инспекцияси:  
Поставлен на учет в государственной налоговой инспекции: ЯККАБАГСКИЙ р-н

СТИР берилган сана:  
Дата присвоения ИНН: 15.06.2018



Маълумотномада кўрсатилган маълумотлар тўғрилигини текшириш учун мобил  
телефон ёрдамида QR-кодни сканер қилинг.  
Отсканируйте QR-код при помощи мобильного устройства для проверки  
подлинности информации.





## Информация о юридическом лице (По данным регистрирующих и уполномоченных органов)

### Общие сведения

ИНН:	302678167
Регистрирующий орган:	Хокимият района (города)
Дата регистрации :	06.08.2013
Номер регистрации:	4446
Наименование юридического лица:	"AVANGARD IDEAL PLYUS" mas` uliyati cheklangan jamiyati
Код ОПФ:	152 - Общество с ограниченной или дополнительной ответственностью
Код ОКЭД:	42110 - Строительство дорог и шоссе
Код СООГУ:	79994 - Субъекты предпринимательства, не вошедшие в структуры органов государственного и хозяйственного управления

Принадлежность к субъектам малого предпринимательства:	Да
Состояние активности:	Действующие предприятия
Уставный фонд:	5 000 000,00 UZS

Информация о руководителе	
Имя руководителя:	ESHMURODOV MA'RUF ELMAXMATOVICH

1. ESHMURODOV MA'RUF ELMAXMATOVICH	100,00
2.	
3.	
4.	
5.	

Контактные данные	
Адрес электронной почты:	avangard@mail.ru
Контактные телефоны:	903979487
Код СОАТО:	1727265819 - Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Qizg'aldoq QFY
Улица, тупик, дом:	N.Nosirov ko'chasi, 29-uy

Данные актуальны на 24/11/2022